



O'ZBEKISTON XOR SAN'ATIDA VATANPARVARLIK MAVZUSIDAGI ASARLARNING YOSH AVLOD TARBIVASIDAGI O'RNI

Muallif: Ibrohimova Shahzoda ¹, professor, s.f.n. Xakimova A.X. ²

Affilyatsiya: O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi “Akademik xor dirijyorligi” kafedrası 1-kurs magistri ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14406718>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola O'zbekiston xor musiqasida Vatanparvarlik mavzusining o'rni va ahamiyatiga bag'ishlangan. Unda Vatan tushunchasining turli tarixiy davrlardagi talqini, zamonaviy kompozitorlar ijodi va xor musiqasining tarbiyaviy ahamiyati o'rganiladi. Zamonaviy o'zbek kompozitorlari Dilorom Omonullayeva, Mustafo Bafoyev va Avaz Mansurov asarlari misolida, Vatanparvarlik mavzusining xalqni birlashtirishdagi roli va yosh avlodni milliy g'urur ruhida tarbiyalashdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Vatanparvarlik, xor musiqasi, milliy qadriyatlar, yosh avlod tarbiyasi, zamonaviy o'zbek kompozitorlari, madaniy meros.

O'zbekistonning boy madaniy merosida xor san'ati alohida ahamiyat kasb etadi. Xor asarlari xalqning madaniy o'ziga xosligini, tarixiy xotiralarini va milliy qadriyatlarini ifodalashda, avlodlar o'rtasida birdamlik tuyg'usini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Xususan, Vatanparvarlik mavzusidagi xor asarlari o'zbek xalqining tarixi va ruhiy holatini aks ettiruvchi eng ta'sirchan badiiy shakllardan biridir. Ushbu maqola xor musiqasida Vatan mavzusining turli tarixiy davrlardagi rivoji, zamonaviy o'zbek kompozitorlari ijodida aks etishi va uning tarbiyaviy ahamiyatini keng qamrovda tahlil qilishga qaratilgan.

Xor musiqasida Vatan tushunchasining tarixiy talqini. O'zbek xalqining Vatanga bo'lgan muhabbati turli tarixiy davrlarda o'z ifodasini topgan. Turkiston muxtoriyati davrida Vatan g'oyasi xalqni birlashtiruvchi kuch sifatida ko'rilgan. Jadidchilar tomonidan yaratilgan milliy madhiyalar, jumladan, Cho'lponning “Ozod Turk bayrami” she'ri, xalqning ozodlik intilishlarini ifodalashda muhim o'rin tutgan. Ushbu davrda xor asarlari, ko'pincha xalqning birligini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, aksariyat hollarda akapella uslubida ijro etilgan. Sovet davrida Vatan tushunchasi ideologik tus olgan bo'lsa-da, xor musiqasi ushbu davrda yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarildi. Hamza Hakimzoda Niyoziyning ikki ovozli inqilobiy qo'shiqlari xor san'atining dastlabki namunalaridan hisoblanadi. Keyinchalik, Sulaymon Yudakov, Muxtor Ashrafiy, Sobir Boboyev kabi bastakorlar tomonidan Vatan mavzusiga bag'ishlangan ko'plab yirik xor asarlari yaratildi. Masalan, Yudakovning “G'alaba” kantatasi va Ashrafiyning “Baxt haqida qo'shiq” asarlari bu yo'nalishdagi ilk yirik ijodiy muvaffaqiyatlardandir. Mustaqillik davri xor musiqasida Vatanparvarlik mavzusining yangi bosqichini boshlab berdi. Bu davrda

yaratilgan asarlar ozodlik, mustaqillik va milliy qadriyatlarni madh etuvchi yangi ruh bilan boyidi. Jumladan, “O‘zbekiston – Vatanim manim” va “Yagonasan, muqaddas Vatan” kabi tanlovlar xor musiqasida Vatan mavzusini yanada rivojlantirishga zamin yaratdi.

Zamonaviy o‘zbek kompozitorlari ijodi.

Dilorom Omonullayeva-O‘zbek estradasining yorqin namoyandasi Dilorom Omonullayeva o‘z ijodida Vatan mavzusini chuqur yoritgan. Uning “Sen mening Vatanimsan”, “Yashnayver O‘zbekiston”, “Aziz bo‘ston – O‘zbekiston” kabi qo‘shiqlari milliy ruh va zamonaviy musiqaning uyg‘unlashuvi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, uning “Vatan hayotdek aziz” asari musiqiy garmoniyalari orqali Vatanga bo‘lgan samimiy tuyg‘ularni ifodalashda yuksak badiiy mahoratni namoyon etadi.

Mustafo Bafoyev-Yirik janrlar ijodkori Mustafo Bafoyev o‘zining “Toshkent haqida qo‘shiq” oratoriyasi va “Buxoronoma” kabi asarlari orqali xor musiqasiga katta hissa qo‘shgan. “Toshkent haqida qo‘shiq” oratoriyasi Toshkent shahrining tarixiy va madaniy merosini madh etuvchi, dramatik va lirik tuyg‘ularni uyg‘unlashtirgan asardir. Bafoyevning asarlari Vatan haqidagi qo‘shiqlarning madaniy va tarbiyaviy ahamiyatini chuqur ifodalaydi.

Avaz Mansurov- bolalar xori uchun yozgan “O‘zbekiston onajon”, “Hur Respublikam”, “Kitob mening do‘stimсан” kabi asarlari orqali yosh avlodga Vatanga bo‘lgan mehrni shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Uning musiqalari Vatan tuyg‘usini oddiy va ta‘sirchan uslubda ifodalaydi, shu bilan birga, xalq musiqasi elementlarini zamonaviy usullar bilan uyg‘unlashtiradi.

Vatanparvarlik mavzusidagi xor asarlari xalqni birlashtirish, milliy g‘urur va birlikni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatan tuyg‘usini uyg‘otishda bu asarlarning hissiy ta‘siri katta. Dilorom Omonullayeva, Mustafo Bafoyev va Avaz Mansurov asarlari yoshlarni ma‘naviy tarbiyalashda va ularning milliy qadriyatlarga hurmatini shakllantirishda katta imkoniyat yaratadi. Xor musiqasi tarbiyaviy ta‘sir kuchi bilan ajralib turadi. Bu san‘at turi hissiy ta‘sirchanligi orqali yoshlarga Vatan bilan bir butunlik tuyg‘usini singdiradi. Jumladan, “Sen mening Vatanimsan” kabi qo‘shiqlar nafaqat badiiy go‘zalligi, balki kuchli tarbiyaviy mazmuni bilan ham ajralib turadi.

Vatanparvarlik mavzusi o‘zbek xor musiqasining ajralmas qismi bo‘lib, u milliy g‘oya va qadriyatlarni targ‘ib etish, xalqni birlashtirish va yosh avlodni tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy o‘zbek kompozitorlari bu yo‘nalishda yuksak badiiy asarlar yaratib, xor musiqasini milliy va zamonaviy ifoda vositalari bilan boyitmoqda. Kelgusida bu mavzuni yanada chuqurroq o‘rganish va xor musiqasi orqali milliy o‘zlikni tarannum etish dolzarbligicha qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- A. Jabborov “O‘zbekiston kompozitorlari, bastakorlari va musiqashunoslari” Toshkent 2018
- D. Omonullayeva “Estrada xonandaligi” Musiqa 2016
- F. Karomatov “Хамза и узбекская советская музыка” Gozlitizdat 1959
- G. Mansurova “Qo‘shig‘im, jon qo‘shig‘im” G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot manbaa ijodiyot uyi 2016

L. Jumayeva va N. Baxriddinova “Узбекская хоровая литература” G’afur G’ulom nashriyoti 1987

O. Usmonov, D. Qurbonov va boshqalar “ Jadidlar” to’plam, Yoshlar nashriyot uyi 2022

R. Rajabova “ O’zbekiston tarixi” Toshkent 1994.

